

QASHQADAYO VILOYATI TOPONIMLARI

Egamqulov H.E

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston. E-mail: husniddinguldu93@gmail.com

Eshqobilov A.E

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston. E-mail: asadeshqobilov@gmail.com

Annontatsiya: *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining toponimlari, viloyat nomining kelib chiqishi va uninng tarkibidagi tuman va turli joy nomlarinig tarixiy nomlari va shakllanishi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Toponim, geografik obyekt, joy nomi, xuzor, "Kushan", Kesh, chiroq.*

Abstract: *This article contains the toponyms of the Kashkadarya region, the origin of the name of the region and the historical names and formation of the names of the district and various places within it.*

Key words: *Toponym, geographical object, place name, khuzor, "Kushan", Kesh, torch.*

Joy nomlarini o'rganish o'zbek olimlaridan XX asrda H.Hasanov (1963, 1964), S.Qorayev (1979, 1986), P.G'ulomov (1979, 1993, 1994), A.Qayumov, M.T.Mirakmalovlarning o'zbek geografik terminshunosligiga, shu jumladan toponimikaga oid ko'plab ilmiy ishlarini va turli ilmiy maqolalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda yuqoridagilardan tashqari, toponomikaga oid ilmiy izlanishlar geograflardan Q.Xakimov, Q.Seyitniyazov, F.Otaqulov, B.Eshboyev, M.Avezov va boshqalar tomonidan olib borilmoqda [1].

Bugungi kunda geografik nomlar, ularning mazmun mohiyatini o'rganish davlat darajasigacha ko'tarilgan. Bu nomlar qayta ko'rib chiqilmoqda. Jumladan geografik obyektlarning nomlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 12.10.2011 yildagi O'RQ-303-soni. Bu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 4-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2011-yil 26-avgustda ma'qullangan. Ushbu qonun 24 ta moddadan iborat hisoblanadi [2].

Qashqadaryo viloyati maydoni 28,57 ming km.kvni tashkil etadi[3]. Viloyat nomining kelib chiqishi shu nomdagi daryo nomi bilan bog'liq.

Qashqadaryo-O'zbekiston Respublikasidagi alohida viloyat, va daryo nomi. Toponimning kelib chiqishi to'g'risida quyidagi fikrlar mavjud:

1. Ushbu hududda istiqomat qiluvchi yoshi ulug' insonlarning aytishida qaraganda, boshqalardan ajralib turadigan taniqli, belgili narsa qashqa deyiladi. Bu toponim belgili daryo degan ma'noni anglatadi.

2. "Qirg'izlarda qashqa "yo'lboshi" degan urug' bor (bu urug' o'zbeklarda ham bo'lsa kerak). Farg'ona vodiysidagi Yettiqashqa, Yuqori Chirchiq tumanidagi

Beshqashqa, Bog'ot tumanidagi Qashqalar degan toponimlar o'sha urug' nomi bilan atalgan".

3. Toponimdagи qashqa topoasosi appellativ leksikada "1. Ot yoki mol peshonasidagi oqjoy, oq nishona; shunday nishonali ot, mol. 2. Betning ko'rindigan yerida urilishdan qolgan nishona, masalan, yara, chaqa", degan ikkita ma'noga ega. Bunda ham toponim nishonli daryo, belgili daryo deganma'nolarni bildiradi.

4."Qashqadaryo gidronimi qadimgi Kesh (to'g'risi – Kash) shahri (Shahri-sabz) nomining fonetik jihatdan o'zgarishi oqibatidir. Shahrisabz shahrining ikkinchi nomi Kash-i dilkash bo'lgan, Qashqadaryo avval Kesh (Kash) daryosi deb, Amir Temur davrida Xashqa (Xashqarud) deb atalgan va keyinchalik (tovush o'zgarishlarga uchrab) Qashqarud – Qashqadaryo bo'lib ketgan".

Qamashi – shahar va tuman nomi. Tuman hududining bir qismini Qarshi cho'li egallagan. Qamashi nomi o'zbek- qo'ng'iroq qabilasi tarkibidagi qamaychi urug'i nomidan olingan. T.Nafasovning yozishicha, qamay qadimgi turkiy etnonim. Turkiy qabila totem asosida nomlangan. Bu etnik guruh vakillari uchun lochinsimonlar turkumi, qarchig'aylar oilasiga mansub bo'lgan qamay qushi totem sifatida qabul qilingan. Qush dastlab totem bo'lgan, keyinchalik urug' nomi, shahar nomi va tuman nomiga aylangan.

Yakkabog' –shahar va tuman nomi. Yakkabog' tumani Qashqadaryo viloyatinning sharqiy qismida joylashgan. Yakkabog' nomi respublika toponimiyasida yagona emas, balki boshqa mintaqalarda shu nomli geografik obyektlar uchraydi. Ta'kidlash joizki, har bir geografik nomning o'ziga xos "yuk"i bor, zero, unda aniq ma'noga ega bo'lgan turlicha tarixiy, lisoniy, geografik ma'lumotlar mujassam. Shu sababdan toponimga tarixiylik nuqtayi nazaridan to'g'ri yondashib, uning hamma tarkibiy qismlari to'g'ri tahlil qilinsagina izoh ishonarli bo'ladi. Qadimgi yunon faylasufi Platonning ta'biri bilan aytganda, "Kim nomning haqiqiy ma'nosini to'g'ri anglassa, u joyni ham yaxshi biladi". Yakkabog' ham real voqelikni o'zida in'ikos etgan nomdir.

G'uzor -Qadimgi turkiy toshbitiklarda Xuzor/Xuzar/Xazar tarzida bitilgan nomning tarkibi, ma'nosi, qaysi tilga mansubligi noaniqroq. Muhimi – bu nomning Xuzor/ Xuzar/Xazar tarzida V-VII asr qadimgi turkiy yodnomalarda bitilganligi va turkiy xalqlar yashaydigan eng chekka hududdagi shahar nomi sifatida izoh berilganligidir. 558 Xalq rivoyatlarida turlicha izohlanib keladi: xuk+zor – cho'chqa yo'llari bo'lgan joy. Yoki mo'g'ulcha gazar (tal gazar) – cho'l, dasht joy; xol – gazar – eng chekka joy. Bu izohlarning barchasini ilmiy izoh deb bo'lmaydi.

Kitob–shahar va tuman nomi. Kitob dastlab shahar nomi bo'lgan, keyin tuman ham shu nom bilan atalgan. Tuman nomining bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi va tarbiya quroli bo'lgan kitobga aloqasi yo'q. Ayrim toponimik adabiyotlarda tuman nomiga tojikcha kitf – "yelka" va ob – "suv" so'zlari asos bo'lgan, deyilgan. Shahar atrofidagi baland Hisor va Zarafshon tog'lari suv ayirg'ich vazifasini bajarganligi uchun, shaharga Kitfiob nomi

berilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik, joy nomlarining tejalish qonuniyatiga ko'ra, nom Kitob shakliga o'zgargan.

Shahrizabz -shahar, tuman (1929). Janubiy Sug'dning uch ming yillik tarixga ega bo'lgan bu shahri qadimda Kesh deb atalgan, XIV asrdan Shahrisabz nomi bilan yuritilganligi manbalarda zikr etilgan. "...bahorlar sahrosi va shag'ri va bomi va tomi ko'b, sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar" tavsifidan ma'lumki, Shahrisabz - shaharning dastlab norasmiy, xalqona nomi bo'lgan. Tabiiy belgilari va fazilatlari shaharning nomlanishiga asos bo'lgan. Shahrisabz - bog'-u bog'otlari, daraxtlari, ko'kat-u poliz ekinlari, o't-o'lanlari bisyor Shahar ma'nosini anglatadi.

Chiroqchi-shahar va tuman nomi. T.Nafasovning yozishicha, IV-X asrlarda Chiroqchi katta va obod shahar bo'lgan. Shahar mo'g'ullar istilosidavrida xarobaga aylangan. Tuman nomiga asos bo'lgan chiroqchi so'zini ikki xil izohlash mumkin: chiroqchi - chiroq yasovchi hunarmand; chiroqchi - qabriston (xonaqoh) kabi joylarda chiroq (sham) qo'yib, yoqib yuruvchi kishi. Odatda, nomlanayotgan geografik obyekt qaysi bir xususiyati yoki ma'lum bir faoliyati yoki hodisa va voqealar bilan kishilar diqqatini jalg qilgan taqdirda nomlashga asos bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Egamqulov, H. E., & Sh, Q. S. (2022). DO 'STLIK TUMANI GEOGRAFIK JOY NOMLARI. Экономика и социум, (11-1 (102)), 69-73.
- 2.Egamqulov, H. E., & Sh, Q. S. (2022). JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI. Экономика и социум, (6-2 (97)), 67-70.
3. Egamqulov H.E., Eshqobilov A.E. Qashqadaryo viloyatining geografik o'rni, aholisi va mehnat resurslari. Raqamlashtirish sharoitida uzlusiz ta'limni sifat va samaradorligini oshirish: muammo va yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 7-8-iyun 2024-yil Guliston.
- 4.Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
5. Avezov.M.M. O'zbekiston joy nomlari izohli lug'ati. Toshkent 2022-yil.